

SANO (SENNA ANGUSTIFOLIA) O'SIMLIGINING FOYDALI XUSUSIYATLARI**Namozova Xamida**

Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti

Biologiya ta'lim yo'nalishi talabasi.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.11070087>***Annotatsiya.** Yer yuzida dorivor o'simliklarning 10-12 ming turi borligi aniqlangan.**Hozirgi kunda 1000 dan ortiq (50-60%) o'simlik turining kimyoviy, farmakologik va dorivorlik xossalari tekshirilgan. O'zbekistonda dorivor o'simliklarning 700 dan ortiq turi mavjud. Ushbu maqolada sano o'simligining foydali xususiyatlari haqida ma'lumotlar keltirilgan.****Kalit so'zlar:** Senna angustifolia, Xind sanosi, makkayi sano, antriglikozidlar, sennozid - A, sennozid -B, rein, izoramentin, kamferol flavonoidlar.***USEFUL PROPERTIES OF SANO (SENNA ANGUSTIFOLIA) PLANT*****Abstract.** It has been determined that there are 10-12 thousand species of medicinal plants on earth. Currently, the chemical, pharmacological and medicinal properties of more than 1000 (50-60%) plant species have been investigated. There are more than 700 types of medicinal plants in Uzbekistan. This article provides information about the beneficial properties of the sano plant.****Key words:** Senna angustifolia, Hind sano, makkayi sano, antriglycosides, sennoside-A, sennoside-B, rein, isoramentin, kaempferol flavonoids.***ПОЛЕЗНЫЕ СВОЙСТВА РАСТЕНИЯ САНО (СЕННА АНГУСТИФОЛИЯ)*****Аннотация.** Установлено, что на земле существует 10-12 тысяч видов лекарственных растений. В настоящее время исследованы химические, фармакологические и лечебные свойства более 1000 (50-60%) видов растений. В Узбекистане насчитывается более 700 видов лекарственных растений. В данной статье представлена информация о полезных свойствах растения сано.****Ключевые слова:** сенна узколистная, Hind sano, makkayi sano, антригликозиды, сеннозид-А, сеннозид-В, реин, изораментин, флавоноиды кемпферола.*

Jaxonda tabiiy dori vositalarini tayyorlashda asosan tabiatdagi mavjud dorivor o'simliklardan keng foydalanish va juda kam dorivor o'simlik turlaridan dori xom-ashyosi sifatida ekilib foydalanish yo'lga qo'yildi. Oqibatda ko'pchilik mamlakatlarda tabiiy dorivor o'simliklarning kamayib ketishiga yoki butunlay yo'q bo'lib ketishiga olib keldi. Hozirgi paytda dorivor o'simliklarni madaniylashtirish, turli iqlim-tuproq sharoitlariga moslashtirish va maxsus agrotexnologiya sharoitida yetishtirish muhim dolzarb masala bo'lib qoldi.

Muhtaram Prezidentimiz Sh. Mirziyoyev 2020-yil 10-apreldagi PQ-4670-sonli qaroriga muvofiq “Yovvoyi holda o’suvchi dorivor o’simliklarni muhofaza qilish, madaniy holda yetishtirish, qayta ishlash va mavjud resurslardan oqilona foydalanish chora-tadbirlari” to’g’risidagi O’zbekiston Respublikasi Prezidentining Qarorida ham bu haqda aytilgan.

O’zbekiston Respublikasi Vazrlar Mahkamasining qarori bilan hozirgi vaqtda dorivor o’simliklarni yetishtirish bilan 8 ta ixtisoslashgan xo’jaliklar tashkil qilindi. Shuningdek bulardan tashqari Respublika O’rmon xo’jaliklarida, ayrim fermer, dehqon xo’jaliklarida va shaxsiy tomorqalarida ham yetishtirish yo’lga qo’yilmoqda.

Shunday dorivor o’simliklardan biri *Senna angustifolia* - o’tkir bargli sano o’simligi bo’lib, bu o’simlik asosan tropik va subtropik iqlim mintaqalarida asosan Ukraina, Belarus, Moldova, Boltiq bo’yi davlatlari, Rossiya Yevropa qismi va G’arbiy Sibirning o’rmon, o’rmon cho’l zonasida, Kavkaz hamda O’rta Osiyoda keng tarqalgan bo’lib, bu o’simlik butun dunyo xalqlari orasida xalq tabobatida dorivor o’simlik sifatida keng foydalanib kelinmoqda [2,3].

Respublikamizda oziq-ovqat, dori-darmon, yem-xashak manbai sifatida burchoqdoshlar (*Fabaceae*) oilasiga mansub o’simliklar behisob manba bo’lib hisoblanadi. Dunyo miqyosida bu oilaga 650-700 ga yaqin turkum, 18000 taga yaqin turlar kiradi. Hamdo’stlik davlatlari hududida 2000 tur, O’zbekistonda 57 turkumga mansub 520 ta tur o’sadi [3]. O’zbekiston Respublikasida esa 480 ga yaqin dorivor turlar uchraydi[1]. Burchoqdoshlar oilasining sistematik tahlili va tasniflari, urug’lari yordamida ko’payishi bo’yicha bir qancha olimlar shug’ullanib kelganlar [2].

Bir qancha issiq o’lkali davlatlarda *Senna* turkum turlari madaniy holda katta maydonlarda ekiladi. O’simlikning yer ustki qismlari asosan antroglukozidlar saqlaydi, urug’laridan tayyorlangan damlamalar oshqozon va ichaklarni tozalovchi va yumshatuvi vosita sifatida ishlatiladi [3]. *Senna*-turkumiga mansub dorivor o’simlik turlari xaqidagi adabiyotlar, atlaslar va farmakognoziya ma’lumotlarida -dorivor o’simliklar sifatida qayd etilgan. *Senna* turkumini Xindiston, Xitoy davlatlarida ko’plab yetishtirish uchun katta ishlar olib borilgan, Kavkaz orti davlatlarida, Arab davlatlarida ham bu turlar o’sishga yaxshi moslashgan. Shundan kelib chiqib, turkumni maxalliy aholi Xindistonda “Xind Sanosi”, Arabistonda “Makkayi sanno” deb nomlashadi [4]. Makkayi sanodan Abu Rayxon Beruniy ustalik bilan foydalangan va o’simlikning qimmatli dorivorlik xususiyatidan foydalanish uchun O’rta Osiyo sharoitida o’stirib, mo’l xosil olish mumkinligini aytgan [2,3].

Abu Ali ibn Sino o’simliklarning damlamasidan foydalanish kerakligini aytib o’tgan. O’tkir bargli Sano O’simligining bargida 6,17%, mevasida 2,70% antriglikozidlar (*Sennozid -A*, *sennozid -V*, *rein*) bo’ladi. Bulardan tashqari izoramentin, kamferol flavonoidlari, hamda salitsil

va boshqa organik kislotalar, smolalar, juda oz miqdorda alkaloidlar bor. Mevasi tarkibida esa smolalar bo'lmaydi.

Xalq tabobatida sanno bargi va mevasidan tayyorlangan damlama surunkali qabziyat xollarida va ichak faoliyati zaiflashganda surgi vosita sifatida bavirusil kasalligida qo'llanadi. Yig'ma choylar, maydalangan bargi va mevasmidan ichni suradigan kafiol preparati tarkibiga kiradi.

Xitoyda nayzabarg sano sevimli va muntazam ishlatiladigan ichni yumshatuvchi giyoh sifatida qadrlanadi. Xitoy tabobatida sano ishtahani ochish va ovqat hazm qilishni yaxshilash maqsadida iste'mol qilinadi. Xitoy tabiblari sanoni qabziyat, shish, oligomenoreya (hayz siklining buzilishi) va glaukoma bilan og'rigan bemorlarga tavsiya etadi. Kon'yuktivit, ba'zi teri kasalliklarida esa tashqi tomondan foydalanish uchun buyuriladi.

REFERENCES

1. Амонтурдиев Қ, Холиқов Қ.. Маккасано (cassia)ни биоэкологик хусусиятлари. Жанубий Ўзбекистон хомашёбоп ўсимликларини ўрганиш. Термиз, 2003. 5-6 бет.
2. Амонтурдиев Қ, Маманазаров Р. Макасанони аҳамияти. Жанубий Ўзбекистон хомашёбоп ўсимликларини ўрганиш. Термиз, 2003. 3-4 бет
3. Тахтаджян А.Л. Жизнь растений. Т-V (2). М.: 1982. С. 189-196-200-201
4. Мурдахаев Ю. М. Ўзбекистонда ватан топган доривор ўсимликлар. Тошкент, 1990